

TABIY RESURSLARDAN FOYDALANISHDA MANFAATLAR TO'QNASHUVI: HUQUQIY TAHLIL

Odilov Jamshid Bobirmirzo o'g'li

**Ilmiy rahbar: Toshkent davlat agrar universitet,
"Huquqshunoslik" kafedrası o'qituvchisi**

[Mobil:+99899993157.E-mail: odilovjamshid1234@gmail.com

Abdumo'minov Muzaffar Joxongir o'g'li

Toshkent davlat agrar universiteti

"Yurisprudensiya" yo'nalish II kurs talabasi

[Mobil:+998998430064.muzaffarabdumominov045@gmail.com]

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19045446>

Annotatsiya: Mazkur maqolada tabiiy resurslardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan manfaatlar to'qnashuvi muammosi huquqiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Davlat, jamiyat, xususiy sektor va mahalliy aholining manfaatlari o'rtasidagi ziddiyatlarning kelib chiqish sabablari, ularning huquqiy asoslari hamda amaliy oqibatlari yoritiladi. Shuningdek, manfaatlar muvozanatini ta'minlashning huquqiy mexanizmlari va takomillashtirish yo'nalishlari bayon etiladi.

Kalit so'zlar: tabiiy resurslar, manfaatlar to'qnashuvi, ekologik huquq, davlat boshqaruvi, barqaror rivojlanish, huquqiy mexanizm, ekologik xavfsizlik.

CONFLICT OF INTEREST IN THE USE OF NATURAL RESOURCES: LEGAL ANALYSIS

Abstract: This article analyzes the problem of conflict of interest arising in the process of using natural resources from a legal point of view. The causes of conflicts between the interests of the state, society, the private sector and the local population, their legal foundations and practical consequences are highlighted. Legal mechanisms for ensuring the balance of interests and areas for improvement are also described.

Keywords: natural resources, conflict of interest, environmental law, public administration, sustainable development, legal mechanism, environmental safety.

КОНФЛИКТ ИНТЕРЕСОВ ПРИ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ: ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ

Аннотация: В данной статье с правовой точки зрения анализируется проблема конфликта интересов, возникающего в процессе использования природных ресурсов. Выделены причины конфликтов между интересами государства, общества, частного сектора и местного населения, их правовые основы и практические последствия. Также описаны правовые механизмы обеспечения баланса интересов и области для улучшения.

Ключевые слова: природные ресурсы, конфликт интересов, экологическое право, государственное управление, устойчивое развитие, правовой механизм, экологическая безопасность.

Tabiatdan foydalanish jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiy etishining muhim shartidir, ta'bir joiz bo'lsa, davlatning iqtisodiy qudrati va salohiyatining moddiy asosidir. Kishilik jamiyati tabiiy resurslaridan foydalanmagan holda mavjud bo'la olmaydi va bunday sharoitda barqaror rivojlanish to'g'risida so'z ham bo'lishi mumkin emas. Shunday ekan,

tabiatdan foydalanish bu muqarrar voqealidir. O'z navbatida, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar uyg'un muvozanatda rivojlanishi lozim. Tabiatdan foydalanish - insonning turli ehtiyojlarini qondirish, respublikani samarali va barqaror rivojlantirish yo'lida hozirgi va kelajak avlodlarning manfaatlarini ko'zlab, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni uyg'unlashtirgan holda amalga oshiriladigan faoliyatidir.

Hozirgi vaqtlardagi asosiy muammolardan biriga aylanib borayotgan yer va suvdan foydalanish masalasi tobora global muammoga aylanmoqda. Shuningdek, jannatmakon yurtimizda ham bu muammolar mavjud. Biroq mamlakatimizda yer va suv resurslari milliy boylik sifatida baholanadi va ularning huquqiy muhofazasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Darhaqiqat, yer va suv resurslari har qanday davlatning barqaror taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etuvchi asosiy tabiiy boyliklardandir. Jamiyatimizda aholining yashash sharoitini yaxshilash, oziq-ovqat resurslari bilan ta'minlash kabi masalalar bevosita ushbu sohalarga bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi o'zining geografik joylashuvi va iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda, yer va suv zaxiralarining cheklanganligi bilan ajralib turadi. Shu bois, ushbu resurslarning muhofazasi hamda ulardan foydalanishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Davlatimiz qonunchiligiga murojaat qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar xalq mulki hisoblanishi va ular davlat tomonidan boshqarilishi belgilab qo'yilgan. Bu norma yer va suv resurslaridan foydalanish hamda ularni muhofaza qilishda mustahkam huquqiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Tabiatdan foydalanish huquqi esa yuridik va jismoniy shaxslarning tabiat obyektlari, tabiiy resurslar va tabiiy komplekslardan foydalanish bilan bog'liq faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari majmuyi sifatida ifodalanadi. Tabiatdan foydalanish ma'lum me'yorlardan bo'lishi tabiatning o'zini qayta tiklash qobiliyatini ta'minlashi kerak. Barqaror rivijlanish ham aynan tabiiy resurslardan hozirgi va kelajak avlod manfaatlarini hisobga olgan holda foydalanishni ta'minlashni ko'zda tutadi. Tabiatdan foydalanish bilan bog'lik ijtimoiy- ekologik munosabatlarga kirishish, ushbu munosabatlarda ma'lum huquq va majburiyatlarga ega bo'lish hamda ularni amalga oshirish uning subyektlarga taalluqli bo'lib, ular esa o'z navbatida tabiatdan foydalanish huquqining subyektini tashkil etadi. Tabiatdan foydalanish huquqining subyektlari yuridik va jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin. Tabiatdan foydalanuvchi har qanday yuridik va jismoniy shaxs, chunki har qanday korxonalar yoki inson hayot shart-sharoitlari va tabiat resurslaridan foydalanadi, chunki ular tabiatsiz mavjud bo'la olmaydi.

Tabiiy resurslar insonning yashashi uchun zarur bo'lgan shunday vositalaridirki, ular jamiyatga bevosita emas, balki ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish vositalari orqali ta'sir etadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, "tabiiy resurslar" tushunchasini ko'pgina olimlar turlicha ta'riflashadi. Masalan, geograf olimlar, eng to'liq ta'rif berganlar: "Tabiiy resurslar – kishi bevosita tabiatdan oladigan va ularning yashashlari uchun zarur bo'lgan xilma-xil vositalardir". Prof. Yu.G.Saushkin esa "elektr energiya olish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlabchiqarish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan tabiiy komponentlarni va sanoat uchun xom ashyolarni" tabiiy resurslar deb ta'riflaydi. Geograf olim A.A.Mins esa, "tabiiy resurslardan foydalanish shakllari va yo'nalishlariga qarab, ularni iqtisodiy jihatdan sinflarga bo'lishni" birinchi o'ringa qo'yadi. Bu sinflarga bo'lishda, ya'ni tasniflashda, tabiiy resurslar moddiy ishlab

chiqarishning asosiy sektorlarida va ishlab chiqarishdan tashqari sferada foydalanishga qarab guruhlariga ajratiladi.

Tabiatdan umumiy foydalanish ma'lum bir chegara, me'yor va miqdorlarda bo'ladi. Bunday qoida va talablar esa o'z navbatida qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Bu esa tabiatdan chegarasiz beayov foydalanish uning ayrim obyektlari ishdan chiqishi, kamayib ketishini oldini oladi. Shuningdek, tabiatdan umumiy foydalanishni amalga oshiruvchi subyektlarning teng huquqliligini ta'minlaydi. Masalan, hayvonot dunyosidan umumiy foydalanish jismoniy shaxslar tomonidan hayvonlarni yashash muhitidan azratib olmasdan va hayvonlarga zarar yetkazmasdan amalga oshirilib barcha tabiiy suv havzalarida 5 kilogrammgacha miqdorda baliqlarni sport va havaskorlik tarzda ovlash mumkin.

Tabiiy resurslardan foydalanishda manfaatlar to'qnashuvi, avvalo, iqtisodiy manfaat bilan ekologik manfaat o'rtasidagi ziddiyatda namoyon bo'ladi. Masalan, yer osti boyliklarini qazib olish yoki yirik sanoat loyihalarini amalga oshirish qisqa muddatda yuqori daromad keltirishi mumkin. Biroq bunday faoliyat atrof-muhitning ifloslanishiga, yer va suv resurslarining degradatsiyasiga, aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli mavjud. Shu jihatdan investor yoki xo'jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy manfaatlari bilan jamiyatning ekologik xavfsizlikka bo'lgan huquqi o'rtasida muayyan qarama-qarshilik yuzaga keladi.

Manfaatlar to'qnashuvi tabiiy resurslardan foydalanish vakolati berilgan davlat organlari faoliyatida ham ko'rinishi mumkin. Agar mansabdor shaxs resursdan foydalanish bo'yicha qaror qabul qilish jarayonida shaxsiy yoki guruhviy manfaatlarini ustuvor qo'ysa, bu holat korrupsiyaviy xavf tug'diradi. Natijada resurslardan oqilona va adolatli foydalanish tamoyillari buziladi. Shu sababli manfaatlar to'qnashuvi masalasi ekologik huquq doirasida ham, korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlari doirasida ham muhim o'rin tutadi.

Tabiiy resurslar bilan bog'liq manfaatlar to'qnashuvi ko'pincha mahalliy aholi manfaatlari bilan yirik xo'jalik loyihalari o'rtasida ham yuzaga keladi. Masalan, yer maydonlarini sanoat yoki qurilish maqsadlarida ajratish jarayonida fuqarolarning mulkiy huquqlari, yashash muhiti va an'anaviy turmush tarzi o'zgarishi mumkin. Bu esa ijtimoiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Huquqiy nuqtayi nazardan bunday vaziyatlarda jamoatchilik eshituvlari, ekologik ekspertiza va kompensatsiya mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiiy resurslardan foydalanishda manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etishning asosiy yo'li – manfaatlar muvozanatini ta'minlashdir. Bu esa qonun ustuvorligi, oshkoralik, hisobdorlik va barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilish orqali amalga oshiriladi. Davlat ekologik xavfsizlikni kafolatlovchi normalarni mustahkamlashi, resurslardan foydalanish jarayonida jamoatchilik ishtirokini kengaytirishi va nazorat mexanizmlarini kuchaytirishi lozim.

O'zbekistonda so'nggi yillarda tabiiy resurslardan foydalanish sohasida huquqiy islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, yangi tahrirdagi Yer kodeksi, "Yer qa'ridan foydalanish to'g'risida"gi hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar manfaatlar muvozanatini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ushbu islohotlar resurslardan oqilona foydalanish, shaffoflikni oshirish va jamoatchilik ishtirokini kengaytirishga yo'naltirilgan.

Mamlakatimiz sharoitida manfaatlar to'qnashuvi ko'pincha iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin. Masalan, yer osti boyliklarini qazib olish yoki yirik sanoat obyektlarini qurish jarayonida investorlar iqtisodiy samaradorlikni ko'zlasa, davlat

ekologik xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda ekologik ekspertiza tizimi, davlat nazorati va ruxsat berish tartiblarining takomillashtirilishi manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, suv resurslarini boshqarish masalasi O'zbekiston uchun dolzarbdir. Qishloq xo'jaligi va sanoat ehtiyojlari bilan aholining ichimlik suvi ta'minoti o'rtasida muvozanatni saqlash davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylangan. Suvni tejevchi texnologiyalarni joriy etish, tomchilatib sug'orish tizimini kengaytirish va raqamli monitoring mexanizmlarini qo'llash orqali manfaatlar uyg'unligini ta'minlashga erishilmoqda.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga o'tish siyosati doirasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ekologik talablarni kuchaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan dasturlar qabul qilindi. Bu esa iqtisodiy manfaat bilan ekologik xavfsizlik o'rtasidagi ziddiyatni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Davlat organlari faoliyatida ochiqlikni ta'minlash, elektron platformalar orqali litsenziya va ruxsatnomalar berish jarayonini soddalashtirish ham manfaatlar to'qnashuvi xavfini kamaytiruvchi muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda tabiiy resurslardan foydalanishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi huquqiy islohotlar, oshkoralik siyosati va barqaror rivojlanish tamoyillari asosida bosqichma-bosqich hal etilmoqda. Davlatning ekologik xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va aholi manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan kompleks yondashuvi resurslardan oqilona foydalanish hamda kelajak avlodlar manfaatlarini saqlab qolishga xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Xudoyberganov R., To,raqulov Sh. Tabiiy resurslardan foydalanish va ularni boshqarish. – Toshkent: Ekosan, 2023.
2. Abdullaeva N.K. Atrof-muhitni muhofaza qilishning huquqiy asoslari. – Toshkent: TDYuU nashriyoti, 2023.
3. Karimov A.A., Xolbo,tayev R.R. Ekologik xavfsizlik va resurslardan barqaror foydalanish. – Samarqand: Zarafshon, 2019.
4. Porter, M. E. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990.
5. Krugman, P. Development, Geography, and Economic Theory. MIT Press, 1995.